

Ulug'murodov N.X.
Samigova N.

F I Z I K A D A N L A B O R A T O R I Y A I S H L A R I U C H U N
P A S K A L T I L I D A
H I S O B L A S H D A S T U R L A R I

TOSHKENT 2006

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

OLIY VA O'RTA TIBBIY TA'LIM BO'YICHA
O'QUV - USLUB IDORASI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
FIZIKA , MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O'zbekiston Sog'liqni saqlash
vazirligining
kadrlar , fan va o'quv yurtlari
bosh boshqarmasi boshlig'I
_____Ataxanov SH.E.
“ ____ ” _____ 2006 yil

F I Z I K A D A N L A B O R A T O R I Y A I S H L A R I U C H U N
P A S K A L T I L I D A
H I S O B L A S H D A S T U R L A R I

TOSHKENT - 2006

Mualliflar: **ULUG'MURODOV N.X.**
SAMIGOVA N.

Taqrizchilar: 1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi ToshDTU qoshidagi
OIPI dotsenti **Mirsodiqov P.**

2. ToshFarmI "Fizika , matematika va axborot texnologiyasi "
kafedrası dotsenti **Yunusov R.**

Ushbu qo'llanma farmatsevtika va tibbiyot institutlarining "Fizikadan" namunaviy dastur asosida yozilgan bo'lib, unda talabalarning umumiy fizikadan bajarishlari lozim bo'lgan laboratoriya ishlarining hisoblash algoritmi va Paskal' tilida natijalarni hisoblash dasturlari berilgan.

Qo'llanmaga mexanika asoslariga oid 9 ta , molekulyar fizika va termodinamika asoslariga oid 8 ta , elektr, optika, atom va yadro bo'limlariga oid 15 ta laboratoriya ishlari kiritilgan.

Ushbu qo'llanmada keltirilgan barcha laboratoriya ishlarining nazariy qismi, ishni bajarish tartibi, o'zlashtirish savollari va boshqa ma'lumotlar N.X.Ulug'murodovning "Fizikadan praktikum" kitobida keltirilgani uchun bu qo'llanmada keltirilmadi.

Qo'llanma asosan farmatsevtika va tibbiyot institutlarining talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan boshqa barcha oliy o'quv yurtlari va kollejlarning talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Toshkent Farmatsevtika Institutining ilmiy kengashida
tasdiqlangan. Bayonnoma № 9. 11.04.2006.

SO'Z BOSHI

Ma'lumki, barcha tabiiy fanlar singari fizika fani ham tabiat hodisalarini o'rganadi. Tabiat hodisalaridan esa ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda, fan va texnika yutuqlarini halq ho'jaligining turli tarmoqlariga joriy qilishda keng ko'lamda foydalaniladi. Fizika fanini o'rganishda laborotoriya ishlarini bajarish muhim o'rin egallaydi. Laborotoriya ishlarini bajarish bo'yicha mashg'ulotlar paytida talabalar o'z bilimlarini oshirishlari, olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashlari, fizikani asosiy tushunchalari va qonunlarini chuqurroq tushunish va anglab olishga erishishlari, eksperimental masalalarni echish malakalari ko'nikmalarini hosil qilishlari, fizik asbob va qurilmalar shuningdek, o'lchov asboblari bilan ishlashni hamda tajriba natijalarini ishlab chiqishni o'rganishlari lozim.

Laborotoriya ishlarini bajarishda talaba avvaldan tayyorgorlik ko'rishi, buning uchun esa u qisqa vaqt ichida ishning tavsifi bilan tanishib, konspekt yozishi, shuningdek, ishni bajarishda foydalaniladigan adabiyotlar bilan tanishishi lozim. Bu esa qisqa vaqt ichida katta hajmdagi nazariy materialni o'zlashtirishni va ko'p vaqt talab etadigan laborotoriya ishlarini bajarishda, olingan natijalarga matematik ishlov berish kabi hisoblash ishlarini bajarishni taqozo etadi. Buni e'tiborga olgan holda o'quv jarayonida EHMni qo'llanilishi, olgan bilimlarini va malakalarini sifatini oshishiga, hamda ko'plab vaqtni tejashiga olib keladi. Shu bilan birga EHM bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilib, mavjud bo'lgan standart dasturlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Ushbu qo'llanma "Umumiy fizika", "Tibbiy biologik fizika, informatika va tibbiyot qurilmalari kursi" dasturlari asosida yaratilgan bo'lib, unda 32 ta laborotoriya ishi berilgan. Har bir laborotoriya ishining olingan qiymatlarga ko'ra hisoblash algoritmi va dasturi keltirilgan. Bundan tashqari qo'llanmada Paskal' tili haqida qisqacha ma'lumot va jadvallar bo'lib ular talabalarni har bir hisoblashni to'liq va tez bajarishiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi vaqtda mavjud adabiyotlarning ko'pchiligi rus tilida bo'lganligi, o'zbek tilidagi adabiyotlarning etishmasligi va ular bizning institut o'quv dasturini to'liq qanoatlantirmasligi sababli ushbu qo'llanma talabalarni yuqorida zikr etilgan dastur talablari darajasida o'zlashtirishga erishishlarida ko'makdosh bo'ladi deb hisoblaymiz.

Qo'llanma bilan tanishib chiqib, qimmatli maslahatlari bilan uning sifatini yaxshilashda o'z hissalarini qo'shganlari uchun ToshFarMI "Fizika, matematika va axborot texnologiyalari" kafedrası o'qituvchilariga va taqrizchilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Hurmatli kitobxonlar qo'llanmaga oid o'z fikr-mulohazalaringizni bildirishlaringizni so'raymiz.

Mualliflar.

I. KIRISH

1.1. Paskal tili haqida ma'lumot.

Paskal tili N.Virt tomonidan 1969-yil ishlab chiqarilgan. Yaratuvchining niyati A.F`yuer va N.Djexanning dasturlash tilidan afzal bo'lgan yuqori darajadagi dastirlash tilini yaratish bo'lgan. U bu niyatiga erishdi.

Paskal yuqori darajadagi dasturlash tili bo'lib, u:

1. Dastirlashning struktura hamda konseptsiyalarini sistematik va aniq ifodalash imkonini beradi.
2. Dasturlarni qayta ishlashni sistematik amalgam oshirish imkonini beradi.
3. Mashinaga big'liq bo'lmagan dasturlash tilining ishlatilishi qulay o'qilishni, afzallikni yo'qatmagan holda dasturning ishonchliligini oshishiga olib kelishni ko'rsatadi.
4. Katta dasturlarni tashkil etish usullarini tushunishni yaxshilashga olib keladi.
5. Xatolar diagnostikasining rivojlangan ashyolariga ega bo'lganligi sababli dasturlashga o'rgatish uchun qulay vosita hisoblanadi.

Paskal tili o'rganuvchidan haqiqiy hisoblash mashinasini til chegaralarini bir muncha toraytiradi, lekin ushbu chegaralash ishonchli dasturlarni taratilashiga olib kelib, tasodifiy xatolarni aniqlash darajasini oshiradi. Buning natijasida dasturlash tezligi ortadi.

Avvalo Paskal tili universitetlarda tarqalib, keyinchalik esa turli xildagi elektron hisoblash mashinalari uchun Paskal tilidan translyatorlar ishlab chiqarildi.

1981-yilda Paskal tilining halqaro standart taklif etilgan bo'lib, hozirgi kunda IBM PC turidagi shaxsiy kompyuterlarida Paskal tilining Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan Turbo Paskal dialekti mashhurdir.

1.2. Paskal muhitida ishlash.

TURBO PASKAL muhitiga kiritish uchun

C:>K/turbo.exe yoki C:>K/turbo

Buyrug'ini kiritish kerak, bu erda K-turbo.exe fayli joylashgan katalog nomi.

Bu buyruq kiritilgandan keyin ekran ko'rinishi o'zgaradi, yani TURBO PASKAL muhiti dasturi ishga tushadi. Ekranning yuqori sathida TURBO

PASKAL muhiti ishlash rejimining MENUsi va quyi satrida esa funksional tugmalar vazifasi ifodalangan bo'ladi.

№	MENU punktlari	Vazifasi	Tugmada
1	File-Open	Yozilgan dasturni, yani faylni taxrirlash uchun ishga tushirish	F ₃
		Bu punkt tanlanganda ekranda dialog oynacha hosil bo'ladi, qaysiki biz bu yerda kerakli faylni nomini kiritishimiz lozim	
2	File-Save	Taxrirlangan faylni xotiraga olish	F ₂
		Bu punkt tanlanganda fayl redactor xotirasidan diskka yoziladi.	
3	File-Save as	Taxrirlanmoqchi bo'lgan faylni boshqa nom bilan xotiraga olish	
		Bu punkt yordamida taxrirlanmoqchi bo'lgan faylning nomi o'zgartiriladi va yangi nom bilan diskka yoziladi	
4	File-New	Yangi faylni taxrirlashni boshlash TURBO PASKAL muhitidagi redactor yangi faylni tuzish rejimiga o'tadi.	
		Bunda faylning nomi NONAMExx.PAS xotiraga olish jarayonida yangi nomga o'zgartirish lozim	
5	File-Exit	TURBO PASKAL muhitida ishni yakunlash	Alt + X
6	Run-Run	Dasturni ishga tushirish	Ctrl + F ₉
		Dastur yozilishi tekshiruvdan o'tadi va dastur bajarilishi ishga tusadi	
7	Compile-Compile	Dasturning yozilishini tekshirish	Alt + F ₉
		Agar dastur yozilishi tekshirish jarayonida xatolar borligi ma'lum bo'lsa ekranda unga mos holda xabarlar chiqadi	

TURBO PASKAL muhitida dasturning matnlari tuziladi va taxrirlanadi. Redactor rejimiga o'tish, faylni ekranda hosil qilish yoki yangi faylni tuish bilan amalgam oshiriladi. Standart funksiyalar ma'lumotlarni qayta ishlashda uchraydigan elementar qiymatlarni hisoblashda foydalaniladi. Standart

funksiyalarga murojat qilish uchun funksiya nomi va qavs ichida o'zgaruvchi nomlari ko'satiladi.

Funksiyalarga murojat etish formasi	Bajaradigan funksiyasi	Argument qabul qiladiga qiymat turlari	Funksiya qiymatining turi
ABS(X) SQR(X)	$ X $ X^2	REAL yoki INTEGER	REAL yoki INTEGER
SIN(X) COS(X) EXP(X) LN(X) SQRT(X) ARCTAN(X)	$\sin(x)$ $\cos(x)$ e^x $\ln(x)$ $\sqrt{x}$ $\arctan(x)$	REAL yoki INTEGER	REAL
TRUNC(X) ROUND(X)	Sonning butun qismini ajratish Sonni yaxlitlash	REAL	INTEGER
PRED(X) SUCC(X)	Oldingi joylashgan elementni aniqlash Keyinda joylashgan elementni aniqlash	INTEGER yoki CHAR yoki BOOLEAN	INTEGER yoki CHAR yoki BOOLEAN
ORD(X)	Belgilar majmuidan belgining tartib raqamini aniqlash	CHAR yoki BOOLEAN	INTEGER
CHR(X)	Belgilar majmuidan belgini tartib raqami bo'yicha aniqlash	INTEGER	CHAR
ODD(X)	Sonning juft-toqligini aniqlash	INTEGER	INTEGER

1.3. Asosiy tugmalarning vazifalari.

Redaktor bilan ishlash uchun asosiy tugmalarning vazifalari:

Enter kursor turgan joydan boshlab yangi satrni qo'yish;

Del kursor tagidagi belgini o'chirish;

Back Space kursor oldidagi belgini o'chirish;

Ins qo'yish rejimini o'rnatish yoki bekor qilish;

←, → kursorni chap va o'ngga surish;

↑, ↓ kursorni bir satr yuqoriga va pastga surish;

Pg Up kursorni bir ekran yuqoriga;

Pg Dn kursorni bir ekran pastga;

Ctrl+Pg Up kursorni bir sahifa yuqoriga;

Ctrl+Pg Dn kursorni bir sahifa pastga;

Matnda bloklar bilan ishlash:

Ctrl+K,B blokning boshini belgilash;

Ctrl+K,K blokning oxirini belgilash;

Ctrl+K,Y belgilangan blokni olib tashlash;

Ctrl+K,C belgilangan blokning nusxasini kursordan keyin joylashtirish;

Ctrl+K,V belgilangan blokni harakatlantirish;

Ctrl+K,P belgilangan blokni bosmaga chiqarish;

1.4. Paskal tilining grafik operatorlari va funksiyalari.

Grafik rejmda display ekrani juda ko'p nuqtalardan tashkil topgan to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'ladi. Grafik rejmda har bir nuqta o'zining rangiga ega. Har hil rangdagi nuqtalar yordamida chiziqlar va boshqa turli hil figuralar chizish mumkin. Ranglar soni kamida ikkita bo'ladi. Display ekrani yoki matnli rejmda yoki grafik rejmda bo'ladi.

Ko'p qo'llaniladigan adapterlarga quyidagilar kiradi.

- CGA (Color Graphics Adapter)
- MCGA (Multi Color Graphics Array)
- EGA (Enhanced Graphics Adapter)
- VGA (Video Graphics Array)

GRAPH modulida turli hil drayverlarni ko'rsatish uchun o'zgarmaslar aniqlangan:

Const

Detect=0 (draeverni avtomatik ravishda aniqlaydi)

CGA=1

MCGA=2

EGA=3

EGA64=4

EGAmono=5

IBM8614=6

Hercmono=7

ATT400=8

VGA=9

PC327=10

Ekranni grafik rejmgga o'tkazish. Odatda display ekrani matnli rejmda bo'ladi.

Ekranni grafik rejmgga o'tkazish uchun Graph InitGraph modul protsedurasi qo'llaniladi:

Initgraph (GD,GM,Path) – ekranni grafik rejmgga o'tkazish.

GD – draever no'meri

GM – rejm no'meri

Path – kerakli drayverni saqllovchi faylga yo'l. Agar Path bo'yash qatorini saqlasa (Path=""), u holda drayver joriy katalogdan izlanadi.

GD va GM lar o'zgaruvchi parametr hisoblanadi. Initgraph ishga tushirilganda GD=0 bo'lsa, u holda kerakli drayver va optimal grafik rejm avtomatik ravishda aniqlanadi.

Graph modulida 80 ga yaqin protsedura va funksiya saqlanadi. Bular yordamida nuqtalar, oraliqlar, ellepslar, to'g'ri to'rt burchaklar, ko'p burchaklar chizish mumkin.

Koordinata sistemasini chizishni ko'rib chiqamiz.

Ekranning har bir nuqtasi o'zining koordinatasiga ega. Yuqori chap burchak – bu (0,0) koordenatali nuqta. X absissalar o'qi chapdan o'nga, y koordinatalar o'qi esa yuqoridan paska tomon ortib boradi. Masalan, VGAHi (640*480) rejmda o'ng chap burchak koordinatasi (639,479) dan iborat, bu holda ekranning o'rtasining koordinatasi (320,240) dan iborat. Agar ekranning o'rtasiga nuqta qo'yish hohishi bo'lsa, uni PUTPIXEL protsedurasi yordamida bajarish mumkin.

Putpixel (x,y,color) protsedura Color parametri bilan aniqlangan (x,y) koordenatali nuqtani bo'yaydi.

Masalan, Putpixel (100,120,red) protsedurasining chaqirilishi natijasida (100,120) koordenatali qizil rangdagi nuqta paydo bo'ladi. Putpixel protsedurasi kerakli joyga kerakli rangdagi nuqtani qo'yadi, unga simmetrik bo'lgan funksiya

GETPIXEL bilan esa teskarisi, yani berilgan koordinatali nuqta qanday rangga ega ekanligini aniqlash mumkin.

Getpixel (x,y) funksiya (x,y) koordinatali nuqtaga rang qiymatini kiritadi. Agar COL butun o'zgaruvchi bo'lsa u holda COL:=Getpixel (50,80); operator bajarilgandan keyin COL (50,80) nuqtada rang qiymatiga ega bo'ladi.

Graph modulida sodda figuralar: oraliqlar, aylanalar, ellepslar, to'g'rito'rt burchaklar va hokozolarni chizish uchun bir qancha protseduralar mavjud: LINE – (x1,y1,x2,y2) protsedurasi (x1,y1) nuqtadan (x2,y2) nuqttagacha kesmani o'tkazadi.

CIRCLE - (x,y radius) protsedurasi markazi (x,y) bo'lgan va Radiusli aylana chizadi.

RECTANGLE – (x1,y1,x2,y2) protsedurasi chap yuqori burchagi koordinatasi (x1,y1) va o'ng pastki burchagi koordinatasi (x2,y2) bo'lgan to'g'ri to'rt burchakni chizadi.

SetColor – (Color) protsedurasi chizmaning joriy rangini aniqlaydi. Agar bu protsedurada boshqa rang o'rnatilmagan bo'lsa, u holda joriy rang oq rang hisoblanadi. Grapfik rejmda rangni belgilash uchun o'zgarmaslardan foydalanish mumkin:

Const

Black=0 (qora)

Blue=1 (ko'k)

Green=2 (yashil)

Red=4 (qizil)

Brown=6 (malla)

Yellow=14 (sariq)

White=15 (oq)

.

1-QISM. MEXANIKA

1-LABORATORIYA ISHI

ANALITIK TAROZINING TUZILISHI VA UNDA TORTISHNI O'RGANISH

Kerakli asbob va materiallar: 1. ADV-200 tipidagi dempferli analitik tarozi. 2. Tarozi toshlari. 3. Tortiladigan jismlar.

Ishdan maqsad: Analitik tarozining tuzilishi bilan tanishish va unda tortishni o'rganish.

Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishi bajarilganda (3-5) xil modda (mis, alyuminiy, temir, plastmassa, kauchuk, yog'och va hokazo) dan yasalgan 1-3 xil to'g'ri geometrik shakldagi (silindr, konus, shar va hokazo) jism olinadi. Olingan jismlarning har biri uchun qo'yidagi o'lchashlar va hisoblashlar bajariladi:

1. Jism massalari dastlab texnik tarozida 5 marta o'lchanib, m_1, m_2, m_3, m_4, m_5 qiymatlar aniqlanadi va $\bar{m} = (m_1 + m_2 + m_3 + m_4 + m_5) / 5$ ifodadan ularning o'rtacha qiymati topiladi. Topilgan o'rtacha qiymatga ko'ra o'lchashdagi absolyut xatolik $\Delta m_1 = |\bar{m} - m_1|, \dots, \Delta m_5 = |\bar{m} - m_5|$ va uning o'rtacha qiymati $\Delta \bar{m} = (\Delta m_1 + \Delta m_2 + \dots + \Delta m_5) / 5$ topiladi. Topilgan absolyut xatolikning o'rtacha qiymatga ko'ra $E_m = (\Delta \bar{m} / \bar{m}) \cdot 100\%$ nisbiy xatolik topiladi.

2. Jism massasi analitik tarozida 5 martadan o'lchanib, $m_1', m_2', m_3', m_4', m_5'$ qiymatlari aniqlanadi. Ularning o'rtacha qiymati $\bar{m}' = (m_1' + \dots + m_5') / 5$ va o'lchashdagi absolyut xatolik $\Delta m_1' = |\Delta \bar{m}' - m_1'|, \dots, \Delta m_5' = |\Delta \bar{m}' - m_5'|$ topiladi. $\Delta \bar{m}' = (\Delta m_1' + \dots + \Delta m_5') / 5$ absolyut xatolikning o'rtacha qiymatiga ko'ra $E_{m'} = (\Delta \bar{m}' / \bar{m}') \cdot 100\%$ nisbiy xatolik topiladi.

3. Topilgan $\Delta \bar{m}$ ba $\Delta \bar{m}'$ qiymatlarga ko'ra analitik taroziga nisbatan texnik tarozida o'lchashdagi absolyut $\Delta \bar{m}'' = |\Delta \bar{m}' - \Delta \bar{m}|$ va nisbiy xatolik $E_{m''} = (\Delta \bar{m}'' / \bar{m}') \cdot 100\%$ topiladi.

m[I]- texnik tarozida tortilgan jism massasi, m12- o'rtacha qiymati, Dm11- absolyut xatolik, Em1- nisbiy xatolik, m1[I]- analitik tarozida tortilgan jism massasi, m22- o'rtacha qiymati, Dm22- absolyut xatolik, Em2- nisbiy xatolik, m5- massalar orasidagi farq.

Hisoblash dasturi

```

Program mis;
var  I,n : integer;
    m5, m11,m12,dm11,dm22,m21,m22,Dm12,Dm21,D11,D22,Em1,Em2,Dm,m5,E:real;
    m,m1,Dm1,Dm2:array [1..10] of real;
Begin  read(n);
    for I:=1 to N do
        begin read (m [I],m1[I]);
end;
    for I:=1 to N do begin
        m11:=m11+m[I];
        m21:=m21+m1[I];
end;
    m12:=m11/n;
    m22:=m21/n;
    for I:=1 to n do
begin
    Dm1[I]:=ABS(m12-m[I]);
    Dm12:=Dm12+Dm1[I];
    Dm2[I]:=ABS(m22-m1[I]);
    Dm21:=DM21+Dm2[I];
end;
    Dm11:=Dm12/n;
    Dm22:=Dm21/n;
    Em1:=100*Dm11/m12;
    Em2:=100*Dm22/m22;
    Dm:=ABS(Dm11-Dm22);
    M5:=m12-m22;
    E:=100*Dm/m5;
Writeln ('Texnik tarozida jism massasi' ,m12:8:4,'absol. xatolik',Dm11:8:4);
Writeln ('Nisbiy xatolik',Em1:8:4 );
Writeln ('Analitik tarozida jism massasi',m22:8:4,'absol. xatolik',Dm22:8:4);
Writeln ('Nisbiy xatolik',Em2:8:4);
Writeln ('Massalar orasidagi farq ',m5:6:3,'absol. xatolik',Dm:8:4);
Writeln ('NISbiy xatolik',E:8:4);
end.

```

Analitik tarozida jism massasini tortish va tortish natijasida qilingan xatoliklarni tekshirish dasturi

```

Program p1;
Uses Crt; {***}
Var i, n : integer ;
    py , py1 , dp , dpy , d , epy : real ;
    p11,p2,p3,p,p4,n0,n1,dp1:array [1..10] of real;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  Write ( ' Shkalaning o`rtacha yuksiz ko`rsatkichi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(N0);
  For I:=1 to n do
  Begin
    Gotoxy(2,i+4);
    Write ( ' Shkalaning o`rtacha yukli ko`rsatkichi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(n1[i] );
    End;
    For I:=1 to n do
    Begin
      Gotoxy(52,i+4);
      Write ( ' Nominal o`g`irlik [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(p11[i] );
      End;
      For I:=1 to n do
      Begin
        Gotoxy(2,14+i);
        Write ( ' tashqi limba ko`rsatkichi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(p2[i] );
        End;
        For I:=1 to n do
        Begin
          Gotoxy(45,14+i);
          Write ( ' ichki limba ko`rsatkichi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(p3[i] );
          End;
          For i:=1 to n do
          Begin
            P4 [i] := 0.0001* ( n1[i] – n0 ) ;
            P [i] := p1 [i] + p2 [i] + p3 [i] + p4 [i] ;
            Py1 := py1 + p [i] ;
            End ;
            Py := py1 / n ;
            For I:=1 to n do
            Begin
              Dp1 [i] := abs ( py-p [i] ) ;
              Dp :=dp+dp1 [i] ;
              End ;
              Dpy := dp / n ;
              Epy :=100* ( dpy / py ) ;
              if (epy>1) then begin write ( 'Natijalar noto`g`ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
              if (epy<1) then begin
                CrlScr ; {****}
                Writeln ( '                               Analitik tarozida tortish                               ' ) ;
                Writeln ( ' ----- ' ) ;
                Writeln ( 'tajribalar soni',n:2,'Shkalaning o`rtacha yuksiz ko`rsatkichi',no:3:2);

```

```

Writeln ( ' I ' , ' n1 [i] ' , ' p1 [i] ' , ' p2 [i] ' , ' p3 [i] ' , ' p4 [i] ' , ' p ' , ' dp ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For I := 1 to n do
Begin
Writeln ( I:2, n1[i]:7:2, p1[i]:7:2, p2[i]:7:2, p3[i]:7:2, p4[i]:7:2, p[i]:7:2, dp[I]:7:2 );
End;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' py : = ' , py : 5 : 2 , ' absolyut xato dpy : = ' , dpy : 5 : 2 );
Writeln ( ' nisbiy xato epy : = ' , epy : 5 : 2 );
End;
If epy < 0.2 then write ( ' Tajriba a`lo bahoga bajarilgan ' );
If epy > 0.2 then if epy < 0.5 then write ( ' Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If epy > 0.5 then if epy < 1 then write ( ' Tajriba o`rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

2-LABORATORIYA ISHI

TO`G`RI GEOMETRIK SHAKLGA EGA BO`LGAN QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar: 1. Shtangensirkul (aniqligi 0,1 mm).
2. Mikrometr (aniqligi 0,01 mm). 3. Silindr shakldagi jism. 4. Tarozi va tarozi toshlari 5. To`g`ri geometrik shaklga ega bo`lgan jismlar.

Ishdan maqsad: To`g`ri geometrik shaklga ega bo`lgan qattiq jismlarning zichligini aniqlash usullari bilan tanishish.

1-mashq. Yaxlit silindr shaklidagi jismlarning zichligini aniqlash.

Hisoblash algoritmi.

Bu laboratoriya ishini bajarganda silindrning balandligi (h_i), diametri (d_i) va massasi (m_i) o`lchanadi. Bu qiymatlarga ko`ra quyidagi hisoblashlar bajariladi:

- $V_i = \frac{\pi}{4} d_i^2 \cdot h_i$ - formuladan silindrning hajmi;

- $\rho_i = \frac{m_i}{V_i}$ - formuladan tajriba natijasida olingan jismning zichligi

massasi (m_i) va hisoblab topilgan hajmning (V_i) qiymatlariga ko`ra zichligi topiladi.

- $\bar{\rho} = (1/n) \sum_{i=1}^n \rho_i$ - ifodadan zichlikning o`rtacha qiymatlari topiladi,

- $\Delta\rho=|\bar{\rho}-\rho_i|$ - ifodalardan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolik topiladi,

- $\Delta\rho=(1/n)\sum_{i=1}^n |\bar{\rho}-\rho_i|$ - ifodadan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati topiladi.

- $E_\rho=(\Delta\rho/\bar{\rho})\cdot 100\%$ - ifodadan hisoblashdagi nisbiy xatolik topiladi.

Topilgan qiymatlarga ko'ra zichlikning haqiqiy qiymati: $\rho_{\text{haq}}=\rho\pm\Delta\rho$ ko'rinishida ifodalanadi. Natijalar 1.2.1-jadvalga yoziladi.

1.2.1-jadval

T/T №	Massa, $m_i(\text{g})$	Balandlik, $h_i(\text{sm})$	Diametr, $d_i(\text{sm})$	Hajmi, $V_i(\text{sm})$	Zichlik, $\rho_i(\text{g/sm})$
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
O'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{h}$	$\bar{d}$	$\bar{V}$	$\bar{\rho}$

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan qo'yidagicha belgilab olamiz:

$$m_i = M(I), \quad h_i = H(I), \quad d_i = D(I), \quad V_i = V(I), \quad \rho_i = P(I), \quad \Delta\rho = Dp1, \quad E_\rho = Ep$$

Hisoblash dasturi

```

Program p2 ;
Uses Crt; {***}
Var i , n : integer ;
    Dp1 , p , p1 , dp , ep : real ;
    V , p0 , m , d , h , dp0 : array [ 1..10 ] of real ;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  For I:=1 to n do
  Begin
    Gotoxy(2,i+4);
    Write ( ' Jism massasi [',I,']= ' ) ; Read ln(m[i] );
  End;
  For I:=1 to n do
  Begin
    Gotoxy(52,i+4);
    Write ( ' Diametr [',I,']= ' ) ; Read ln(d [i] );
  End;

```

```

For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(2,14+i);
Write ( ' Balandlik [' ,I,']= ' ); Read ln(h [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
V [i] :=3.14*sqr ( d [i] ) *h[i] / 4 ;
P0 [i] :=m [i] / v [i] ;
P :=p + p0 [i] ;
End ;
p1 :=p / n ;
For I:=1 to n do
Begin
Dp0 [i] := abs ( p1 – p0 [i] ) ;
Dp := dp+dp0 [i] ;
End ;
Dp1 :=dp / n ;
Ep :=100*dp1 / p1 ;
if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ep<1) then begin
ClrScr ; {****}
Writeln ( ' Geometrik shaklga ega bo'lgan ( yaxlit silindr) qattiq ' );
Writeln ( ' jismning zichligini aniqlash ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' tajribalar soni' , n:2 , ' m- massa ' , ' d -diametr ' , ' balandlik -h ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' I ' , ' m ' , ' h ' , ' d ' , ' v ' , ' p0 ' , ' dp0 ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For I:= 1 to n do
Begin
Writeln ( i:2, m[i] :8:2, h [i] :6:2, d [i] : 6:2,v[I]:8:2, p0 [i]:6:2 , dp0[i]:6:2 );
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' zichlik p1=' , p1 : 4 , ' absolyut xato dp1=' , dp1 :6 : 4 );
Writeln ( ' nisbiy xato ep=' , ep : 6 : 4 );
End;
If ep<0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.2 then if ep<0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.5 then if ep<1 then write ( ' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

2-mashq. Kovak silindr zichligini aniqlash Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishini bajarganda silindrning balandligi (h_i), tashqi diametri (D_i), ichki diametri (d_i) va massasi (m_i) o'lchanadi. Bu qiymatlarga ko'ra quyidagi hisoblashlar bajariladi:

- $V_i = \frac{\pi}{4}(D_i^2 - d_i^2) \cdot h_i$ - formuladan kovak silindrning hajmi;

- $\rho_i = \frac{m_i}{V_i}$ - formuladan tajriba natijasida olingan jismning massasi

(m_i) va hisoblab topilgan hajmning (V_i) qiymatlariga ko'ra zichligi topiladi.

- $\bar{\rho} = (1/n) \sum_{i=1}^n \rho_i$ - ifodadan zichlikning o'rtacha qiymati topiladi,

- $\Delta\rho = |\bar{\rho} - \rho_i|$ - ifodalardan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolik topiladi,

- $\Delta\bar{\rho} = (1/n) \sum_{i=1}^n |\bar{\rho} - \rho_i|$ - ifodadan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati topiladi,

- $E\rho = (\Delta\bar{\rho} / \bar{\rho}) \cdot 100\%$ - ifodadan hisoblashdagi nisbiy xatolik topiladi.

Topilgan qiymatlarga ko'ra zichlikning haqiqiy qiymati: $\rho_{\text{haq}} = (\bar{\rho} \pm \Delta\bar{\rho})$ ko'rinishida ifodalanadi. Natijalar 1.2.2-jadvalga yoziladi.

1.2.2 – jadval

T/T №	Massa, $m_i(\text{g})$	Balandlik, $h_i(\text{sm})$	Tashqi diametr, $D_i(\text{sm})$	Ichki diametr, $d_i(\text{sm})$	Hajm, $V_i(\text{sm}^3)$	Zichlik, $\rho_i(\text{g/sm}^3)$
1.					,	
2.						
3.						
4.						
5.						
O'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{h}$	$\bar{D}$	$\bar{d}$	$\bar{V}$	$\bar{\rho}$

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$$m=M, h=H, D_1=R1, d_2=R2, V=V, \rho=p, \Delta\rho=Dp1, E\rho=Ep$$

Hisoblash dasturi

```

Program p22 ;
Uses Crt; {***}
Var i , n : integer ;
    Dp1 , p , p1 , dp , ep:real;
    V , p0 , m , d1,d2 , h , dp0 : array [ 1..10 ] of real ;
Begin
ClrScr ; {***}
Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(2,i+4);
Write ( ' Silindr massasi [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(m [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(52,i+4);
Write ( ' Tashqi diametr [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(d1[i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(2,14+i);
Write ( ' Ichki diametr [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(d2[i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(45,14+i);
Write ( ' Balandlik [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(h [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
V [i] :=3.14* ( sqr( d1 [i] ) – sqr ( d2 [i] ))*h [i] / 4 ;
P0 [i] :=m [i] / v [i] ;
P :=p + p0 [i] ;
End ;
P1 :=p / n ;
For I:=1 to n do
Begin
Dp0 [i] := abs ( p1 – p0 [i] ) ;
Dp := dp+dp0 [i] ;
End ;
Dp1 :=dp / n ;
Ep :=100*dp1 / p1 ;
if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ep<1) then begin
ClrScr ; {****}
Writeln ( ' Geometrik shaklga ega bo'lgan (kovak silindir) qattiq ' );
Writeln ( ' jismning zichligini aniqlash ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' tajribalar soni ' , n:2 , ' m - massa ' , ' d1– tashqi diametr ' );
Writeln( ' d2– ichki diametr', ' h [i] – balandlik ' );

```

```

Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' I ', ' m ', ' h ', ' d1 ', ' d2 ', ' v ', ' p0 ', ' dp0 ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For I:= 1 to n do
Begin
Writeln ( i:2, m[i]:8:2, h[i]:6:2, d1[i]:6:2, d2 [i]:6:2, v[I]:6:2, p0 [i]:6:2, p0[i]:6:2 );
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' zichlik p1=', p1 : 6 : 4 , ' absalyut xato dp1=', dp1 :6 : 4 );
Writeln ( ' nisbiy xato ep=', ep : 6 : 4 );
End;
If ep<0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.2 then if ep<0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.5 then if ep<1 then write ( ' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

3-mashq. Shar shaklidagi jismlar zichligini aniqlash.

Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishini bajarganda sharning diametri(d_i) va massasi(m_i) o'lchanadi. Bu qiymatlarga ko'ra quyidagicha hisoblashlar bajariladi:

- $x_i = \frac{d_i}{2}$ - ifodadan sharning radiusi,
- $V_i = \frac{4}{3}(\pi \cdot x_i^3)$ - formuladan hajmi,
- $\rho_i = \frac{m_i}{V_i}$ - formuladan tajriba natijasida olingan jismning massasi (m_i)

va hisoblab topilgan hajmining(V_i) qiymatlariga ko'ra zichligi topiladi.

- $\bar{\rho} = (1/n) \sum_{i=1}^n \rho_i$ - ifodadan zichlikning o'rtacha qiymati topiladi,
- $\Delta \rho_i = |\bar{\rho} - \rho_i|$ - ifodalardan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolik topiladi,
- $\Delta \bar{\rho} = (1/n) \sum_{i=1}^n |\bar{\rho} - \rho_i|$ - ifodadan zichlikni hisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati topiladi,
- $E = (\Delta \bar{\rho} / \bar{\rho}) \cdot 100\%$ - ifodadan hisoblashdagi nisbiy xatolik topiladi.

Topilgan qiymatlarga ko'ra zichlikning haqiqiy qiymati: $\rho_{\text{haq}} = \bar{\rho} \pm \Delta \rho$ ko'rinishida ifodalanadi. Natijalar 1.2.3-jadvalga yoziladi.

1.2.3-jadval

T/T №	Massa, m (g)	Radius, X (sm)	Hajm, V (sm ³)	Zichlik, ρ (g/sm ³)
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
O'rtacha				

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan belgilab quyidagicha olamiz :

$$d=D, x=R, m=M, V=V, \rho=p, \Delta\rho=Dp1, E=E\rho$$

Hisoblash dasturi

```

Program p2 ;
Uses Crt ; {***}
Var i , n : integer ;
    dp1 , p , p1 , dp , ep : real ;
    v , p0 , m , d , dp0 : array [1..10 ] of real ;
Begin
CrlScr ; {***}
Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(2,i+4);
Write ( ' Shar massasi [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(m [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(52,i+4);
Write ( ' Shar diametri [ ' ,i, ' ]= ' ) ; Read ln(d [i] );
End;
For i:=1 to n do
Begin
v [i] :=3.14*exp ( 3*ln ( d [i] ) ) / 6 ;
p0 [i] :=m [i] / v [i] ;
p :=p+p0 [i]
End ;
p1 :=p / n ;
For i:=1 to n do
Begin
dp0 [i] := abs ( p1 – p0 [i] ) ;
dp := dp+dp0 [i] ;
End ;
dp1 := dp / n ;
ep :=100*dp1 / p1 ;
if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ep<1) then begin

```

```

ClrScr ; {****}
Writeln ( '      Geometrik shaklga ega bo'lgan ( shar ) qattiq jismning ' );
Writeln ( '              zichligini aniqlash. ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( '      tajribalar soni ' , n : 2 , ' m – massa ' , ' d – diametr ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( '      i ' , ' m[i] ' , ' d[i] ' , ' v[i] ' , ' p0[i] ' , ' dp0[i] ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For i := 1 to n do
Begin
Writeln ( i : 2 , m[i] : 8 : 2 , d[i] : 8 : 2 , v[i] : 8 : 2 , p0[i] : 8 : 2 , dp0[i] : 8 : 2 );
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' Zichlik p1=' , p1 : 5 : 2 , ' Absalyut xato dp1=' , dp1 : 5 : 2 );
Writeln ( ' Nisbiy xato ep=' , ep : 5 : 2 ); end;
If ep < 0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ep > 0.2 then if ep < 0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ep > 0.5 then if ep < 1 then write ( ' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

3 – LABORATORIYA ISHI

SUYUQLIK VA SOCHILUVCHAN QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI PIKNOMETR YORDAMIDA ANIQLASH

1 - mashq. Suyuqlikning zichligini piknometr yordamida aniqlash.

- Kerakli asbob va materiallar:** 1. Tarozi toshlari bilan 2. Piknometr.
3. Toza suv quyilgan idish. 4. Tekshiriladigan suyuqlik quyilgan idish.
5. Termometr. 6. Barometr.

Ishdan maqsad: Suyuqliklarning zichligini piknometr vositasida aniqlashni o'rganish.

Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishini bajarganda o'tkaziladigan tajribalardan tekshirilayotgan suyuqlikning zichligini $(\rho_x = \rho_c \cdot \frac{(M_1 - m)}{(M - m)})$ aniqlash uchun

kerak bo'lgan m , M_1 , M – kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

№	M	M ₁	M
1.			
2.			
3.			
o'rtacha	$\overline{m}$	$\overline{M_1}$	$\overline{M}$

Topilgan $\bar{m}$, $\bar{M}_1$, $\bar{M}$ qiymatlariga ko'ra va qolgan kattaliklarni berilgan qiymatlaridan foydalanib quyidagi hisoblashlar bajariladi:

$$- \rho_x = \rho_c \cdot \frac{(M_1 - m)}{(M - m)} - \text{ifodadan tekshirilayotgan suyuqlik zichligining}$$

qiymati topiladi. Tajriba bir necha marta takrorlanib topilgan zichlik qiymatlarining o'rtachasi ($\bar{\rho}_x$) quyidagicha topiladi:

$$\bar{\rho}_x = \sum_{i=1}^n \rho_{xi} / n.$$

- $\Delta\rho_{xi} = |\bar{\rho}_x - \rho_{xi}|$ - ifodadan har bir o'lchashning absolyut xatoligi,

- $\Delta\bar{\rho}_x = \sum_{i=1}^n (\Delta\rho_{xi}) / n$ - ifodadan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati,

- $E_p = \Delta\bar{\rho} / \bar{\rho}$ - ifodadan nisbiy xatolik topiladi.

Olingan natijalar 1.3.2-jadvalga yoziladi:

1.3.2-jadval

T/T №	m_i , (kg)	M_i , (kg)	M_{1i} , (kg)	ρ_{xi} , (kg/sm ³)	$\Delta\rho_{xi}$, (kg/sm ³)	E, %
1.						
2.						
3.						
O'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{M}$	$\bar{M}_1$	$\bar{\rho}_x$	$\Delta\bar{\rho}_x$	

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$$i=I, m_1=M_1, m_2=M_2, m_0=M_0, \rho_c=PC,$$

$$P_x=P_1 \text{ DP1 ab. xato, EP nisbiy xatolik}$$

Hisoblash dasturi

```

Program p3,1 ;
Uses Crt; {***}
Var I , n : integer ;
    Dp , dp1 , p1 , pc , m0 , p , ep : real ;
    m1, m2, dp2 , p2 : array [ 1 ..10 ] of real ;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  Write ( ' Bo'sh piknometr massasi ' ) ; Read ln(m0);
  Write ( ' Dist. Suv zichligi ' ) ; Read ln(pc);
  For I:=1 to n do
  Begin

```

```

Gotoxy(2,i+4);
Write ( 'Piknometrni suv bilan massasi [ ' ,i, ']= ' ); Read ln(m1[i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(52,i+4);
Write ( ' Piknometrni suyuqlik bilan massasi [ ' ,i, ']= ' ); Read ln(m2 [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
P2 [i] :=pc* ( m2 [i] – m0 ) / ( m1 [i] – m0 ) ;
P :=p+p2 [i] ;
End ;
p1 := p / n ;
For I:=1 to n do
Begin
Dp2 [i] := abs ( p1-p2 [i] ) ;
Dp :=dp+ dp2 [i] ;
End ;
Dp1 := dp / n ;
Ep := 100* ( dp1 / p1 ) ;
if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ep<1) then begin
ClrScr ; {****}
Writeln ( ' Suyuqlik zichligini piknometr yordamida aniqlash. ' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( 'tajriba. soni',n:2,'piknometr massasi',m0:4:2,'dis.suv zichligi ',pc:4:2 ) ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' I ', ' m1 [i] ', ' m2 [i] ', ' p2 ', ' dp2 [i] ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For I:=1 to n do
Begin
Writeln (I:2, m1 [i]:5:2 , m2 [i]:5:2 , p2 [i]:6:3 , dp2 [i]:6:4 ) ;
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' suyuqlik zichligi p1=', p1:5:2,' absalyut xato dp1=', dp1:5:2);
Writeln(' nisbiy xato ep=', ep:5:2 ) ;
End;
If ep<0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.2 then if ep<0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.5 then if ep<1 then write ( ' Tajriba o`rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

2 -mashq. Sochiluvchi qattiq jismlarning zichligini piknometr yordamida aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar: 1. Tarozi va toshlari. 2. Piknometr.

3. Toza suv quyilgan idish 4. Tekshirilayotgan qattiq jismlar. 5. Termometr.
6. Filtr qog'oz yoki doka.

Ishning maqsadi: qattiq jismlarning zichligini piknometr vositasida aniqlashni o'rganish.

Hisoblash dasturi

Bu laboratoriya ishini bajarganda o'tkaziladigan tajribalardan tekshirilayotgan jismning zichligini ($\rho_x = m \cdot \rho_s / (M - M_1 + m)$) aniqlash uchun kerak bo'lgan m , M , M_1 - kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi (1.3.2-jadval).

Bu yerda: m -piknometr massasi, M -suvli piknometr massasi, M_1 -suv, qattiq jism va piknometr massasi

1.3.2-jadval

No	M	M	M ₁
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
o'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{M}$	$\bar{M}_1$

Topilgan $\bar{m}$, $\bar{M}$, $\bar{M}_1$ qiymatlarga ko'ra va qolgan kattaliklarni jadvalda berilgan qiymatlaridan foydalanib quyidagicha hisoblashlar bajariladi:

- $\rho_x = \bar{m} \cdot \rho_c / (\bar{M} - \bar{M}_1 + \bar{m})$ - ifodadan tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi qiymati.

- $\Delta\rho_{xi} = |\bar{\rho}_x - \rho_{xi}|$ - ifodadan har bir o'lchashning absolyut xatoligi,

- $\Delta\bar{\rho}_x = \sum_{i=1}^n (\Delta\rho_{xi}) / n$ - ifodadan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati,

- $E_p = \Delta\bar{\rho} / \bar{\rho}$ - ifodadan nisbiy xatolik topiladi.

Olingan natijalarni 1.3.3 – jadvalga yoziladi:

1.3.3-jadval

I	M ₂ (kg)	M ₀ (kg)	M ₁ (kg)	ρ_s (kg/sm ³)	EM (kg)	ρ_x (kg/sm ³)	D _{ρ} (%)	$\Delta\rho_x$	ρ_{haq}
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									
o'rtacha	$\bar{M}_2$	$\bar{M}_0$	$\bar{M}_1$			$\bar{\rho}_x$		$\Delta\bar{\rho}_x$	

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$$m=m_0, M=M_1, m_1=m_2, \rho_s=\rho_c, \rho_x=\rho_2, D_p=D_{p1}, E_p=E_p$$

Hisoblash dasturi

```

Program p32 ;
Uses Crt; {***}
Var I, n : integer ;
    Dp, dp1, p1, pc, p, ep : real ;
    m0, m1, m2, dp2, p2 : array [ 1 ..10 ] of real ;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  Write ( ' Dist. Suv zichligi ' ) ; Read ln(pc);
  For I:=1 to n do
  Begin
    Gotoxy(2,i+4);
    Write ( ' Qattiq jism massasi [ ' ,i, '= ' ) ; Read ln(m0 [i] );
    End;
    For I:=1 to n do
    Begin
      Gotoxy(52,i+4);
      Write ( ' Suvli piknometr massasi [ ' ,i, '= ' ) ; Read ln(m1 [i] );
      End;
      For I:=1 to n do
      Begin
        Gotoxy(2,14+i);
        Write ( ' Suv, qattiq jism va piknometr massasi [ ' ,i, '= ' ) ; Read ln(m2[i] );
        End;
        For I:=1 to n do
        Begin
          P2 [i] := (pc* m0[i] ) / ( m1 [i] – m2[I]+m0[I] ) ;
          P := p+p2 [i] ;
          End ;
          p1 := p / n ;
          For I:=1 to n do
          Begin
            Dp2 [i] := abs ( p1-p2 [i] ) ;
            Dp := dp+ dp2 [i] ;
            End ;
            Dp1 := dp / n ;
            Ep := 100* ( dp1 / p1 ) ;
            if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
            if (ep<1) then begin
              CrlScr ; {****}
              Writeln('Sochiluvchi qattiq jismlarning zichligini piknometr yordamida aniqlash');
              Writeln ( ' ----- ' ) ;
              Writeln ( ' tajribalar soni ', n:2, ' qattiq jismning zichligi ',pc:4:2 ) ;

```

```

Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' I ', 'm0[I]', ' m1 [i] ', ' m2 [i] ', ' p2[I] ', ' dp2 [i] ');
Writeln ( ' ----- ' );
For I:=1 to n do
Begin
Writeln (I:2,m0[I]:5:2, m1 [i]:5:2 , m2 [i]:5:2 , p2 [i]:6:3 , dp2 [i]:6:4 );
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln('jism zichligi p1=',p1:5:2,'abs.xatodp1=',dp1:5:2,'nisbiy xato ep=',p:5:2);
End;
If ep<0.2 then write ('Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ');
If ep>0.2 then if ep<0.5 then write ('Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ');
If ep>0.5 then if ep<1 then write (' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ');
End.

```

4 – LABORATORIYA ISHI

GEOMETRIK SHAKLGA EGA BO'LMAGAN QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI GIDROSTATIK TORTISH USULI BILAN ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar: 1.Shayinli tarozi, toshlari bilan. 2. Geometrik shaklga ega bo'lmagan suvda cho'kuvchi qattiq jismlar. 3.Distillangan suv solingan stakan..

Ishning maqsadi: Arximed qonunidan foydalanib, richagli tarozi yordamida suvda cho'kuvchi jismlarning zichligini aniqlash.

Hisoblash algoritmi

Laboratoriya ishini bajarganda o'tkaziladigan tajribalardan tekshirilayotgan jismning zichligini ($\rho_x = m \cdot \rho_c / (m - m_1)$) aniqlash uchun kerak bo'lgan m , m_1 - kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi (1.4.1-jadval).

1.4.1 - jadval

N _o	m_i	m_{1i}
1.		
2.		
3.		
O'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{m}_1$

Topilgan $\bar{m}$, $\bar{m}_1$ qiymatlarga ko'ra va qolgan kattaliklarni jadvalda berilgan qiymatlaridan foydalanib quyidagi hisoblashlar bajariladi

- $\rho_x = \rho_c \cdot \bar{m} / (\bar{m} - \bar{m}_1)$ - ifodadan tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi qiymati.

- $D_p = \Delta \bar{\rho}_x / \bar{\rho}_x$ - ifodadan hisoblashning nisbiy xatoligi.

- $\rho_{\text{haq}} = \bar{\rho}_x \pm D_p$ - ifodadan tekshirilayotgan suyuqlik zichligini haqiqiy qiymati topiladi.. Olingan natijalar 1.4.2 - jadvalga yoziladi:

1.4.2 - jadval

T/T, №	m_i (kg)	M_{1i} (kg)	ρ_{xi} (kg/sm ³)	$\Delta \rho_{xi}$ (kg/sm ³)	D_p	$\rho_{\text{haq.}}$
1.						
2.						
3.						
o'rtacha	$\bar{m}$	$\bar{m}_1$	$\bar{\rho}_x$	$\Delta \bar{\rho}_x$		

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$$i=I, m=M1, M_1=M2, \rho_x=P, \rho_c=PC, \Delta \rho_x=DP1$$

Hisoblash dasturi

```

Program p4 ;
Uses Crt; {***}
Var i , n : integer ;
    pc , p1 , dp1 , p , dp , ep : real ;
    m1 , m2 , dp2 , p2 : array [ 1..10 ] of real ;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  Write ( ' Dist. Suv zichligi ' ) ; Read ln(pc);
  For I:=1 to n do
  Begin
    Gotoxy(2,i+4);
    Write ( ' Qattiq jismni havodagi massasi [ ' ,i, '= ' ) ; Read ln(m1[i] );
    End;
    For I:=1 to n do
    Begin
      Gotoxy(2,14+i);
      Write ( ' Qattiq jismni suyuqlikdagi massasi [ ' ,i, '= ' ) ; Read ln(m2[i] );
      End;
      For I:=1 to n do
      Begin
        p2 [i] := pc*m1 [i] / ( m1 [i] - m2 [i] ) ;
        p := p+p2 [i] ;
      End ;
    End ;
  End ;

```

```

p1 := p / n ;
For I := 1 to n do
Begin
dp2 [i] := abs ( p1-p2 [i] ) ;
dp := dp + dp2 [i] ;
End ;
dp1 := dp / n ;
Ep := 100* ( dp1 / p1 ) ;
if (ep>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ep<1) then begin
ClrScr ; {****}
Writeln ( '          Jismlarning zichligini gidrostatik tortish          ' ) ;
Writeln ( '          usuli      bilan      aniqlash ' ) ;
Writeln ( ' ----- ' ) ;
Writeln ( ' tajribalar soni n= ', n:2 , ' suvning zichligi pc := ', pc : 5 : 2 ) ;
Writeln ( ' ----- ' ) ;
Writeln ( ' I ', ' m1 [i] ', ' m2 [i] ', ' p2 [i] ', ' dp2 [i] ' ) ;
Writeln ( ' ----- ' ) ;
For I := 1 to n do
Begin
Writeln ( i:2, m1 [i]:5:2, m2 [i] : 5 : 2, p2 [i] : 5 : 2, dp2 [i] :5 : 2 ) ;
End ;
Writeln ( ' ----- ' ) ;
Writeln ( 'O'rtacha zichlik p1= ', p1 : 5 : 2, 'absolyut xatolik dp1= ', dp1 : 5 : 2 ) ;
Writeln ( ' Nisbiy xato ep= ', ep:6:3 ) ;
End;
If ep<0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.2 then if ep<0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ep>0.5 then if ep<1 then write ( ' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

5 – LABORATORIYA ISHI

JISMLARNING DUMALANISH ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI VA SHARNING TO'SIQQA URILGANDAGI KUCH IMPULSINI ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar: 1. Qiya tekislik (Galiliy tarnovi). 2. Metal sharcha . 3. Chizg'ich. 4. Sekundomer. 5.Tarozi va tarozi toshlari..

Ishdan maqsad: Impulsni saqlanish qonuniyatlarini tajribada tekshirish. Qiya tekislik yordami bilan dumalanish ishqalanish koefitsiyentini va sharning to'siqqa urilgandagi kuch impulsini aniqlash.

Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishini bajarganda o'tkaziladigan tajribalardan: 1. Sharchaning massasi (m) tarozida o'lchanib aniqlanadi; 2. Sharchaning diametri(d) shtangensirkul bilan o'lchanib $r=d/2$ ifodaga ko'ra radiusi topiladi; 3. h_1 ba h_2 balandlik chizg'ich yordamida o'lchanadi va $\Delta h=h_2-h_1$ ayirma topiladi; 4. ℓ -tarnov uzunligi o'lchanib yozib olinadi; 5. Sharchaning tushish vaqti (t) yozib olinadi; 6. Sharchaning to'siqqa urilib qaytgan masofa(ℓ_1) yozib olinadi. Bu topilgan qiymatlarga ko'ra:

- $\Delta h/\ell = \sin \alpha$ - ifodadan α ning qiymati.

α ning qiymatiga ko'ra $\cos \alpha$ ba $\operatorname{tg} \alpha$ ning qiymati(jadvaldan);

- $k=r(\operatorname{tg} \alpha - 2\ell/(gt^2 \cdot \cos \alpha))$ – ifodadan ishqalanish koefsiientining;

- $\bar{k} = \sum_{i=1}^n k_i / n$ -ifodadan k ning o'rtacha qiymati;

- $\Delta k = |\bar{k} - k_i|$ - ifodadan o'lchashning absolyut xatoligi;

- $\Delta \bar{k} = \sum_{i=1}^n \Delta k_i / n$ - ifodadan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati;

- $E_k = (\Delta \bar{k} / \bar{k}) \cdot 100\%$ - ifodadan o'lchashning nisbiy xatoligi aniqlanadi.

Topilgan $\bar{k}$ ning qiymatiga ko'ra:

- $F \cdot \Delta t = (2m\ell/t) \cdot [1 + \sqrt{(\ell_1/\ell) \cdot (1 + 2k/(r \operatorname{tg} \alpha - k))}]$ - ifodadan kuch impulsi qiymati topiladi

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$n=N$, $\Delta h=DH$, $\operatorname{tg} \alpha = \Delta h/p$, $\ell=L$, $\cos \alpha = p/L$, $k=K$, $g=G$, $F \cdot \Delta t=FDT$, $\Delta k=DK$,

$\bar{k}=DK$, $E_k=EK$.

Hisoblash dasturi

```
Program p5 ;
Uses Crt; {***}
Var I, n : integer ;
    L2,FTD, p , g,dh,L,m,r,h1,h2,k1,k2,dk1,dk2,ek : real ;
    T,L1,k,dk : array [ 1 ..10 ] of real ;
Begin
CrlScr ; {***}
Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
```

```

Write ( ' Sharcha massasi ' ); Read ln(m);
Write ( ' Sharcha radiusi ' ); Read ln(r);
Write ( ' Stoldan tarnovning yuqori uchigacha masofa ' ); Read ln(h2);
Write ( ' Stoldan tarnovning pastki uchigacha masofa ' ); Read ln(h1);
Write ( ' Tarnov uzunligi ' ); Read ln(L);
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(2,i+4);
Write ( ' Sharchaning tushish vaqti [ ' ,i, ' ]= ' ); Read ln(t [i] );
End;
For I:=1 to n do
Begin
Gotoxy(52,i+4);
Write ( ' Sharchaning urilib qaytish masofasi [ ' ,i, ' ]= ' ); Read ln(L1 [i] );
End;
Dh:=h2-h1;
P:=sqrt(sqr(L)-sqr(dh));
For I:=1 to n do
Begin
K[i]:=r*(dh/p-2*L/(g*sqr(t[i])*p/L));
K1:=k1+k[i];
L2:=L1[i]/n;
End;
K2:=k1/n;
FDT:=m*r*L*(1+k2*2/(r*dh/(p-k2)/L));
For I:=1 to n do
Begin
Dk [i] := abs ( k2-k [i] );
Dk1 :=dk1+ dk [i] ;
End ;
Dk2 := dk1 / n ;
Ek := 100* ( dk2 / k2 );
if (ek>1) then begin write ( 'Natijalar noto'g'ri, boshqatdan natija oling ' ) end ;
if (ek<1) then begin
ClrScr ; {*****}
Writeln ( ' Galiley tarnovida dumalash koef. va sharning to'siqqa ' );
Writeln ( ' urilgandagi kuch impulsini aniqlash.' );
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' I ' , ' L1 [i] ' , ' t [i] ' , ' k[I] ' , ' dk [i] ' );
Writeln ( ' ----- ' );
For I:=1 to n do
Begin
Writeln (I:2, L1 [i]:5:2 , t [i]:5:2 , k [i]:6:3 , dk [i]:6:4 );
End ;
Writeln ( ' ----- ' );
Writeln ( ' ishqalanish koef. K2=' ,k2:6:3,'Kuch umpulsi FDT=' ,FDT:8:4);
Writeln(' abs.xato dk1=' , dk1:5:2,' nisbiy xato ek=' , ek:5:2 );
End;
If ek<0.2 then write ( 'Tajriba a'lo bahoga bajarilgan ' );
If ek>0.2 then if ek<0.5 then write ( 'Tajriba yaxshi bahoga bajarilgan ' );
If ek>0.5 then if ek<1 then write ( ' Tajriba o'rta bahoga bajarilgan ' );
End.

```

6 – LABORATORIYA ISHI

ELASTIKLIK MODULINI CHO’ZILISH DEFORMATSIYASI YORDAMIDA ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar. 1. Eksperimental qurilma. 2. O'lchash indikatori. 3. 50, 100, 150, 200, 250 va 300 g massali yuklar. 4. Elastikligi aniqlanadiga rezina va prujina.

Ishning maqsadi: Rezina va prujining cho'zilish deformatsiyasidan elastiklik (Yung) modulini maxsus eksperimental qurilma vositasida aniqlash.

Hisoblash algoritmi:

Bu laboratoriya ishini bajarganda o'tkazilgan tajribalardan:

- ℓ_0 – rezinaning dastlabki uzunligi
- ℓ_i – rezinaning belgilar orasidagi masofa
- d_i – rezinaning P_i yuk osilgandan keyin diametr o'lchanadi.
- $E_i = 4m_i g \ell_0 / \pi d_i^2 \Delta \ell_i$ – formuladagi kattaliklarning topilgan va berilgan qiymatlarida rezinaning elastik moduli hisoblab topiladi.
- $\bar{E} = \sum_{i=1}^n E_i / n$ – ifodadan o'rtacha qiymat;
- $\Delta E_i = |\bar{E} - E_i|$ – ifodadan absolyut xatolik,
- $\Delta \bar{E} = \sum_{i=1}^n \Delta E_i / n$ – ifodadan absolyut xatolikning o'rtacha qiymati;
- $D = (\Delta \bar{E} / \bar{E}) \cdot 100\%$ – ifodadan nisbiy xatolik topiladi.

Hisoblash natijalari 1.6.1-jadvalga yoziladi.

1.6.1-jadval.

T/T №	$m_i \cdot 10^{-3}$, (kg)	ℓ_i (m)	d_i (m)	ℓ_0 (m)	$\Delta \ell_i$ (m)	E_i (N/m ²)	ΔE_i	D_i %
1.	50							
2.	100							
3.	150							
4.	200							
5.	250							
6.	300							
o'rtacha						$\bar{E}$	$\Delta \bar{E}$	

Bu hisoblashlarni EHM da bajarish uchun yuqoridagi ifodalardagi kattaliklarni lotin alfavitidagi harflar bilan quyidagicha belgilab olamiz:

$$d_i=d, m=m, E_i=E2, \Delta \bar{E}=DE1, \bar{E}=E1, \Delta E=DE2, D=EE$$

Hisoblash dasturi

```

Program p6 ;
Uses Crt; {***}
Var   i , n : integer ;
      L0 , e , de1 , e1 , de , g , ee : real ;
      L , a , b , d , d1 , m , de2 , e2 : array [ 1..10 ] of real ;
Begin
  CrlScr ; {***}
  Write ( ' tajribalar soni ' ) ; Read ln(N) ;
  Write ( ' Rezinaning dastlabki uzunligi ' ) ; Read ln(L0);
  For I:=1 to n do
    Begin
      Gotoxy(2,i+4);
      Write ( ' Cho'zilgandagi uzunligi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(L [i] );
      End;
      For I:=1 to n do
        Begin
          Gotoxy(52,i+4);
          Write ( ' Rezina diametri [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(d [i] );
          End;
          For I:=1 to n do
            Begin
              Gotoxy(2,14+i);
              Write ( ' Yuk massasi [ ' ,i, ']= ' ) ; Read ln(m [i] );
              End;
              G := 9.81 ;
              For I:=1 to n do
                Begin
                  D1 [i] := L [i] -L0 ;
                  A [i] := 4*m [i] *9.81*L0 ;
                  B [i] := 3.14*sqr ( d [i] )*dL [i] ;
                  E2 [i] := a [i] / b [i] ;
                  E := e +e2 [i] ;
                  End ;
                  E1 := e / n ;
                  For i:= 1 to n do
                    Begin
